

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining Rasmiy statistikani tarqatish
IDORAVIY SIYOSATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Rasmiy statistikani tarqatish idoraviy siyosati (keyingi o'rinlarda – Siyosat), O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida” Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-son “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” va 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida, statistika organlari tomonidan foydalanuvchilarga rasmiy statistikani tarqatish va (yoki) taqdim etish bilan bog'liq jarayonlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan hamda keng doiradagi foydalanuvchilar uchun statistika ma'lumotlaridan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlash orqali foydalanuvchilarning ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan.

2. Ushbu Siyosat, tarkibida davlat siri va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirlarga ega statistika ma'lumotlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

3. Mazkur Siyosatni amalga oshirish statistika organlarining o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi va xalqaro statistika tizimida qabul qilingan sifat mezonlariga rioya qilish maqsadini ifodalaydi.

4. Rasmiy statistikani tarqatish va (yoki) taqdim etish jarayonida statistika organlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tasdiqlangan Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari hamda mazkur Siyosatga muvofiq amalga oshiradi.

5. Rasmiy statistika mustaqillik, tushunarlilik va shaffoflik, aniqlik va ishonchlilik, beg'arazlik va xolislik, statistik maxfiylik, dolzarblik prinsiplariga asoslangan holda foydalanuvchilarga tarqatiladi va (yoki) taqdim etiladi.

6. Rasmiy statistika mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholash hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida,

shuningdek, jamoatchilikni xabardor qilish, rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun e'lon qilinadi.

Rasmiy statistika rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga to'la muvofiq holda, shuningdek, ayrim statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash hamda barchaga teng foydalanish imkoniyatini berish orqali e'lon qilinadi.

7. Statistika organlari tomonidan ishlab chiqarilgan rasmiy statistikani tarqatish va (yoki) taqdim etish tartibi Statistika agentligi tomonidan belgilanadi.

8. Rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish foydalanuvchilarga tarqatiladigan ma'lumotlarni jamlash (komplektlash), rasmiylashtirish, ma'lumotlar bazasiga va axborot tizimlariga yuklash, bosma shakllarda chop etish, targ'ibot qilish, turli vositalar (rasmiy veb-saytlar, ommaviy axborot vositalari) orqali e'lon qilish hamda tarqatish bilan bog'liq ishlarni o'z ichiga oladi.

9. Rasmiy statistikaning ro'yxati va uni shakllantirish muddati Statistika agentligining Statistika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi bilan belgilanadi.

Rasmiy statistikani tarqatish davriyligi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

10. Foydalanuvchilar uchun rasmiy statistikani e'lon qilish, Statistika agentligining rasmiy veb-saytida, statistika ma'lumotlarining tayyorlanish sanasi va aniq vaqti ko'rsatilgan "Ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimi"ga (keyingi o'rinlarda – Taqvim) muvofiq amalga oshiriladi.

Taqvim Statistika dasturi asosida choraklar va oylar bo'yicha taqsimlangan holda bir yil uchun ishlab chiqiladi. Taqvimda ko'rsatilgan rasmiy statistikaning e'lon qilinadigan sanasidan har qanday kechikishlar, foydalanuvchilarga e'lon qilinishi belgilangan kundan 1 kun oldin kechiktirmay xabar beriladi. Ushbu taqvim asosida ma'lumotlar oylik, choraklik va yillik davrlarda yangilab boriladi.

Avval e'lon qilingan ma'lumotlarga tuzatishlar kiritilganda, ma'lumotlar yangilanadi va foydalanuvchilarga xabar beriladi.

11. Jamoatchilik rasmiy statistikani e'lon qilish muddatining har qanday o'zgarishi to'g'risida e'lon qilishning rejalashtirilgan sanasiga qadar xabardor qilinadi.

Statistika uslubiyatlaridagi o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan o'zgarishlar to'g'risidagi axborot Statistika agentligining rasmiy veb-saytida jamoatchilikni bu haqida xabardor qilish maqsadida oldindan e'lon qilinadi.

12. Rasmiy statistika o'zaro muvofiqlashtirilgan va ketma-ketlikka ega ma'lumotlar bo'lib, turli manbalardan shakllantirilganda yagona standartlar, tushunchalar, atamalar va ularning ta'riflari, tasniflagichlardan foydalaniladi.

Foydalanuvchilarga tarqatiladigan va (yoki) taqdim etiladigan rasmiy statistika, mazkur ma'lumotlarning to'g'ri talqin qilinishi uchun metama'lumotlar va tushuntiruvchi izohlar bilan birga e'lon qilinadi.

13. Kelgusida qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan dastlabki statistika ma'lumotlari e'lon qilinganda, ular dastlabki ma'lumotlar sifatida ko'rsatiladi.

14. Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan rasmiy statistika ma'lumotlari turli shakllarda bo'lishi mumkin. Xususan, ular jumlasiga bosma nashrlar, press-revizlar, axborotnomalar, jadvallar, interfaol grafikalar, kartogrammalar, umumfoydalanishdagi ochiq ma'lumotlar to'plami, yuklab olish uchun fayllar, videroliklar, rasmiy veb-saytlardagi ma'lumotlar va boshqalar kirishi mumkin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma va elektron nashrlarni hamda boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra pulli asosda taqdim etish huquqiga ega.

16. Tarkibida davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bo'lgan rasmiy statistika ma'lumotlari e'lon qilinmaydi hamda qonunda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

17. E'lon qilingan rasmiy statistikada aniqlangan xatolar tuzatiladi, tuzatilgan ma'lumotlar rasmiy statistikadan foydalanuvchilarni xabardor qilish uchun e'lon qilinadi.

Statistika organlari rasmiy statistikadan noto'g'ri foydalanish yoki ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilinishi yuzasidan zarur hollarda izoh yoki rasmiy munosabat berishi mumkin.

18. Rasmiy statistika xorijiy davlatlarning statistik idoralariga va xalqaro tashkilotlarga Statistika agentligi bilan tuzilgan kelishuvlarga muvofiq, shuningdek, rasmiy statistika almashinuviga asosan taqdim etiladi.

19. Statistika organlari rasmiy statistika ma'lumotlarini ommaviy axborot vositalariga press-revizlar, xabarlar, sharhlar va boshqa axborot materiallari shaklida bepul taqdim etadi.

20. Mazkur Siyosatni amalga oshirishni monitoring qilish maqsadida:

- har yili Statistika agentligining rasmiy veb-saytida statistika organlari tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlardan foydalanuvchilarning qoniqish darajasini o'rganish yuzasidan so'rovlar o'tkazilib boriladi;

- xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy statistika tizimini global va tarmoqlar bo'yicha baholashlar amalga oshiriladi.

21. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar rasmiy statistikani tayyorlovchilarning rasmiy veb-saytlarida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan statistika ma'lumotlaridan erkin foydalanishlari va rasmiy veb-saytlarda va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmagan ochiq statistika ma'lumotlarini olish maqsadida statistika organlariga so'rov bilan yoki ularni e'lon qilish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilishlari mumkin.

22. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar o'z mahsulotlarida (ishlarida va xizmatlarida) o'zi foydalangan statistika ma'lumotlarining manbalarini ko'rsatishi shart.

23. Rasmiy statistika foydalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasining axborot, axborotlashtirish va axborot xavfsizligi hamda birlamchi statistik ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlashga oid qonun talablariga muvofiq tarqatiladi va (yoki) taqdim etiladi.

24. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

25. Statistika agentligi rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlaridan foydalangan holda qabul qilgan qarorlari va uning natijalariga javobgar emas.